

BAXTIYOR NAZAROV VA ABDUG'AFUR RASULOVNING ADABIY - TANQIDIY FAOLIYATI.

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3 – bosqich talabasi

Xurshidaxon Mahammadova

Anotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek adabiyotshunosligining yirik namoyandalari — Baxtiyor Nazarov va Abdug'afur Rasulovning adabiy tanqidiy faoliyati tahlil etiladi. Tadqiqotda ularning ilmiy-estetik qarashlari, adabiy jarayondagi o'rni, tanqidchilik uslubining o'ziga xos jihatlari hamda zamonaviy adabiyot rivojiga qo'shgan hissassi yoritiladi. Shuningdek, ikki olim ijodining o'zaro qiyosiy tahlili orqali ularning adabiy tanqid taraqqiyotiga ta'siri, ilmiy izlanishlaridagi umumiylik va farqli jihatlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar

Baxtiyor Nazarov, Abdug'afur Rasulov, o'zbek adabiy tanqidchiligi, taqriz, adabiy jarayon, adabiy tahlil, tanqid nazariyasi, estetik qarashlar, adabiyot – shunoslik, adabiy portret, metodologiya.

O'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida Baxtiyor Nazarov va Abdug'afur Rasulov alohida o'rin tutadi. Ikkala olim ham XX asr oxiri — XXI asr bosh -larida adabiy tanqidning shakllanishi, metodologik asoslarini boyitish, tanqid - chilik maktabini yangi bosqichga ko'tarishda samarali ijod qilgan. Ularning ilmiy-estetik qarashlari, taqrizchilik mahorati va adabiy jarayonni baholashdagi yangicha yondashuvlari o'zbek adabiy tanqidining rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Baxtiyor Nazarov (1945) o'zbek adabiy tanqidining yirik nazariyotchisi va adabiyotshunos olimlardan biridir. Uning ilmiy faoliyati asosan O'zbekiston FA Til va adabiyot institutida kechgan bo'lib, u bu yerda kichik ilmiy xodimdan institut direktorigacha bo'lgan bosqichlarni bosib o'tgan .

Ilmiy izlanishlari va tadqiqot yo‘nalishlari.

B. Nazarovning ilmiy qiziqishlari hozirgi adabiy jarayon, XX asr o‘zbek ada - biyoti tarixi, adabiy tanqidning nazariy masalalariga qaratilgan. U “Bu sehrli dunyo”, “Hayotiylik — bezavol mezon”, “O‘zbek tanqidchiligi. G‘oyaviylik. Metod. Qahramon” kabi o‘nta yaqin kitoblar muallifidir . Adib Oybek ijodini tadqiq etish Nazarovning dastlabki yirik ilmiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Oybekning estetik qarashlari, badiiy ijodining nazariy asoslari haqidagi maqolalari keyinchalik “Bu sehrli dunyo” kitobining yuzaga kelishiga olib kelgan .

Adabiy tanqid nazariyasiga qo‘shgan hissasi.

B. Nazarov adabiy tanqidning metodologik muammolarini o‘rganib, tanqidchi mahorati, tahlil madaniyati, adabiy jarayonda tanqidning o‘rnini ilmiy asoslab berdi. Uning “Olim madaniyati”, “Badiiy asar qalbi va tanqidchi dunyosi”, “Yosh tanqidchilarni tarbiyalash muammolari” kabi maqolalari adabiy tanqidni yangi yuksak bosqichga ko‘tardi. Shuningdek, u o‘zbek tanqidchiligi tarixini chuqur o‘rgangan va uning taraqqiyot bosqichlarini ilmiy asosda tasniflagan olim sifatida e‘tirof etiladi.

Abdug‘afur Rasulovning adabiy tanqidiy faoliyati

Abdug‘afur Rasulov 1937-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan olim SAGU (hozir-gi O‘ZMU)ning filologiya fakultetida o‘qidi. (1954~1959), o‘zi tahsil olgan fa -kulteti aspiranturasida tahsil oldi o‘zbek adabiy tanqidining mohir taqriznavisi, nazariyotchisi va adabiy jarayonni chuqur tahlil qilgan munaqqiddir.

Taqrizchilik mahorati.

Rasulovning taqrizlari ixchamligi, aniqligi va badiiy asarning “pinxoniylarini ochib berishga yo‘naltirilganligi” bilan ajralib turadi . Uning taqrizlari ki – to‘qsonni asarni chuqurroq idrok etishga undaydi, asarning adabiyotdagi o‘rnini belgilashga yordam beradi. Shuningdek, u har bir yangi asarni muallifning ol -dingi asarlari bilan qiyoslab, uning ijodidagi o‘rni va yangiliklarini ko‘rsatib be- ra oladigan mohir munaqqid sifatida tilga olinadi .

Adabiy tanqid nazariyasiga oid tadqiqotlari.

Rasulovning “Tanqidchilik ufqlari” to‘plami XX asrning 70-yillaridagi adabiy jarayon va tanqid muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tanqid falsafa, es- tetika va adabiyotshunoslik bilan uzviy bog‘liq holda sharhlanadi .Uning “Ilmi g‘aribani qo‘msab...” nomli risolasi esa mumtoz adabiyotshunoslikdagi talqin madaniyati, baytdagi ichki ma’nolar tizimi, badiiy nozikliklarni anglash kabi masalalarni chuqur tahlil qiladi .

Adabiy tanqid nazariyasiga oid tadqiqotlari.

XX asrning 80–90-yillari o‘zbek adabiyotida adabiy portretnavislikning rivoji sezilarli darajada sekinlashgan davr bo‘ldi. Bu yillarda ellik-yetmish yoshga yetgan, adabiyotda mustahkam o‘rin egallagan ko‘plab ijodkorlar haqida tan - qidiy-biografik asarlar yaratish ehtiyoji mavjud bo‘lsa-da, ularga bag‘ishlangan mukammal portretlar juda kam yozildi. Masalan, mashhur shoir A. Oripov haqi- dagi adabiy portret faqat 2000-yilgina yaratilgan, E. Vohidov, Sh. Xolmirzayev, Rauf Parfi, Jamol Kamol, O‘. Hoshimov kabi ijodkorlar haqida esa hali ham to‘laqonli portret asarlar yaratilmagan. Shu jarayonda adabiy portretnavislikni qayta jonlantirish borasida tanqidchi Abdug‘afur Rasulov faoliyati alohida e’ti -borga loyiqdir. Uning portretlari avvalgi namunalariga xos bo‘lgan ayrim kam - chiliklardan xoli bo‘lib, jonli xotiralar, adibning o‘z e’tiroflari, muallifning shaxsiy kuzatuvlari uyg‘unlashgan holda yaratilgan. A. Rasulov portretlarida adibning ruhiyati, ichki dunyosi, individual qiyofasi hayotiy va tabiiy tarzda ochiladi, natijada portret o‘quvchi qalbida yorqin taassurot qoldiradi.

XulosaBaxtiyor Nazarov va Abdug‘afur Rasulov o‘zbek adabiy tanqidining ikki yirik namoyandasi sifatida adabiy jarayonni chuqur anglash, badiiy ijodga ilmiy-estetik yondashuvni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Nazarovning na- zariy qarashlari va tarixiy-adabiy tadqiqotlari, Rasulovning taqriznavislik maho- rati va nozik talqinlari bugungi o‘zbek tanqidchilik maktabining mustahkam as- osini tashkil etadi.

Adabiyotlar.

1. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

2. Nazarov B. Hayotiylik — bezavol mezon. — Toshkent: Yozuvchi.
3. Nazarov B. O‘zbek tanqidchiligi: g‘oyaviylik, metod, qahramon. — Toshkent: Universitet.
4. Nazarov B. Adabiyot nazariyasi va tanqid masalalari. — Toshkent: Fan.
5. Rasulov A. Tanqidchilik ufqlari. — Toshkent: Adabiyot va san’at.
6. Rasulov A. Ilmi g‘aribani qo‘msab... — Toshkent: Yozuvchi.
7. Rasulov A. Iste’dod va e’tiqod (Ozod Sharafiddinov portreti). — Toshkent: Yozuvchi, 2000.